

**O‘ZBEKISTONDA TA’LIM SIYOSATI: KELAJAK AVLOD, YOSHLAR  
VA XOTIN-QIZLAR UCHUN YANGI IMKONIYATLAR**

**Islamova Fotima Shamsiddinovna**

*Xalqaro Nordik universiteti*

*Pedagogika kafedrasida katta o‘qituvchisi*

*Kaala2006@mail.ru*

**Abduqunduzova Gulsora**

*Xalqaro Nordik universiteti*

*2-kurs maxsus pedagogika yo‘nalishi talabasi*

*gulsoraabduqunduzova@gmail.com*

Ta’limga e’tibor kuchli bo’lgan davlatlarda yosh avlod tanqidiy fikrlashga o’rganadi, o’zi va atrofida uchun yangi imkoniyatlarni kashf etishga intiladi va albatta jamiyat hayotida o’z o’rniga ega bo’lgan shaxs bo’lishga harakat qiladi. Shu boisdan, har bir davlat ta’lim tizimini rivojlantirishga harakat qiladi. Bugungi rivojlanib borayotgan Yangi O‘zbekistonda ta’limga e’tibor ham yuksak ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekistonda barcha ta’lim bosqichlari bo‘yicha yaratilayotgan sharoitlar, ayniqsa, Oliy ta’lim sohasidagi o‘zgarishlar ya’ni barcha ta’lim oluvchilarga yaratilayotgan imkoniyatlar taqsiq sazo’vordir. Rivojlangan davlatlarda yoshlarning samarali ta’lim olishi uchun keng ko‘lamli imkoniyat yaratish ustuvor vazifa hisoblangani kabi O‘zbekistonda ham ushbu sohada amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar aynan shu maqsadni amalga oshirishga xizmat qilib kelmoqda. Yoshlarning ta’lim olishga bo’lgan ehtiyojlarini qondirish bilan birga ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar mamlakat taraqqiyoti uchun poydevor bo’lib xizmat qilmoqda.

Ayniqsa, xotin-qizlar va rivojlanishda ma’lum nuqsonga ega bo’lgan shaxslar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar e’tiborga molikdir. Xotin-qizlarning magistratura bosqichida o’qishlari uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 7-martdagi PF-87-son Farmoni 3-bandining “b” kichik bandi birinchi xatboshisiga muvofiq davlat oliy ta’lim muassasalarining magistratura bosqichida o‘qiyotgan barcha xotin-qizlarning kontrakt to‘lovlarini qaytarish shartisiz qoplash maqsadida Davlat budjetidan har yili kamida 200 milliard so‘m moliyalashtirish haqidagi qarorlari yuksak imkoniyatlardan biridir. Yana shuni ham aytishimiz lozimki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020 yil 13 oktabrdagi PQ-4860-son qarori ta’limda tenglik va adolatning yaqqol namoyon bo‘layotganini isbot etadi.

Ta’lim biz yoshlar uchun nafaqat bilim olish balki, shaxsiy rivojlanish, dunyoqarashini kengaytirish va kelajakka mustahkam poydevor qo‘yish uchun xizmat qilmoqda. Yurtimizdagi bilimli, tafakkuri keng yoshlar jamiyatimizning rivojlanishiga shubhasiz katta xissa qo‘shadilar. Shu ma’noda, kechagi kun yoshlari uchun faqat orzu bo’lgan imkoniyatlar, bugungi kunda amalga oshirilayotgan islohotlarda jamdir.

25-Aprel, 2026-yil

Solishritirib ko‘rilganda, 2020-yilda O‘zbekistonda IELTS sertifikatidan 5.5 va undan yuqori ball olgan yoshlar soni 10,152 nafar bo‘lgan bo‘lsa, 2024-yilga kelib bu ko‘rsatkich 53,000 nafarga yaqinlashgan. Bu ko‘rsatkichlardan shuni ko‘rinishimiz mumkinki, jamiyatimiz yoshlari chet tillarini o‘rganishga katta qiziqish bildirmoqda, bu esa ularni xalqaro ta‘lim va mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Jamiyatimizda ta‘lim siyosatining qanchalik rivojlanib borayotganini va shu bilan birga, so‘nggi yillarda ta‘limga bo‘lgan e‘tiborni qanchalik kuchayib borayotganligini Oliy ta‘limning kengayib borayotganidan ham bilishimiz mumkin. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining xabar berishicha 2016-2017- yillarda Oliy ta‘lim muassasalari soni 70 tani tashkil etgan, 2024-2025- yilga kelib esa, bu ko‘rsatkich 222 tani ko‘rsatmoqda. Jamiyatimizda Universitetlarning soni bu tarzda oshib borishi natijasida, bilimli kadrlarning ko‘payishi, iqtisodiy rivojlanishning kundan- kunga tezlashishi, innovatsiya va texnologiyalarning rivojlanishi va eng asosiysi ijtimoiy ongning yuksalishi kuzatilmogda.

O‘zbekiston ta‘lim sohasi bo‘yicha doimiy rivojlanib bormoqda, va men oliy ta‘limda tahsil olayotgan talaba sifatida, bu jarayonning bir qismi bo‘lishdan o‘zimda faxr tuyg‘usini his etmoqdaman. Men talaba sifatida ta‘lim jarayonini qadrlayman. Xususan, Xalqaro Nordik Universiteti Maxsus pedagogika yo‘nalishida tahsil olmoqdaman va ushbu sohaga katta qiziqishim bor va albatta, o‘rganayotgan bilimlarimdan kelajakda unumli foydalanaman deb o‘ylayman. Abuturiyentlik paytlarimda o‘qishga kirish bo‘yicha unchalik katta qiyinchiliklar kuzatilmayotganini ya‘ni «2020/2021 o‘quv yilida O‘zbekiston Respublikasining oliy ta‘lim muassasalariga o‘qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to‘g‘risida»gi Prezident qarori qabul qilingani va ushbu qarorga muvofiq abituriyentlarga test sinovi topshiriladigan fanlar majmuasi hamda fanlar ketma-ketligi bir xil bo‘lgan beshtagacha bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha tanlovda ishtirok etish huquqi berilganligini bilganimda juda xursand bo‘lganman. Bu imkoniyat jamiyatimizning barcha yoshlari va shu jumladan men uchun ham nafaqat quvonarli edi. Universitetga qadam qo‘yganimdan so‘ng, universitet hayotim men uchun yangi va keng imkoniyatlar va tajribalar manbai bo‘lib xizmat qilmoqda. Universitetda dars boshlangan paytlarida o‘zimda kuchli qo‘rquv va hayajonni his qilganman, ayniqsa yangi ustozlardan oladigan saboqlarim ko‘p ekanligini tushunganman. Asta-sekin vaqt o‘tishi bilan ustozlarimning qanchalik mehribon va darsdagi biror mavzuga tushunmay qolsak yordam qo‘lini bizga uzatishlaridan doimo hursand va mamnun bo‘lganman. Talabalik hayotim davomida men nafaqat ilm olish bilan band bo‘lyapman balki, turli ijtimoiy va madaniy faoliyatlarda shu jumladan, turli tanlov va grandlarda ham ishtirok etishga harakat qilib kelmoqdaman. Universitetimiz a‘zolarining bizni turli tanlov va grand dasturlarida qo‘llab-quvvatlashlari albatta, meni doimo harakatdan to‘xtamaslikka va oldinga intilishga undamoqda. Talaba maqomiga erishganimda o‘zimni yangi hayotga qadam qo‘ygan mustaqil inson sifatida his qilganman. Universitetimizda tashkil etilayotgan tanlovlarda qatnashib xususan, “Oltin Fond” nomli rektor stipendiyasida g‘olib bo‘lganimdan so‘ng menda o‘zimga bo‘lgan ishonch yanada oshdi va nafaqat universitetimiz doirasida balki, barcha universitetlarning talabalari doirasida o‘tkaziladigan grand dasturlarida qatnashishga ham xohish paydo bo‘ldi. Ayniqsa,

iqtdorli talabalar uchun Prezidentimiz tomonidan ajratiladigan Prezident stipendiyasini ko'rganimda juda xursand bo'ldim va ushbu grandni yutishga hozirda harakat qilib kelmoqdaman. Shu jumladan, ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlar uchun ajratilgan imkoniyatlarni ya'ni, inklyuziv ta'lim kabi ta'lim dasturlari judayam quvonarli va ushbu imkoniyatlar barcha ta'lim jarayonida teng huquqli ekanligini ifodalaydi. Prezident grandi va shu kabi turli dasturlarda qatnashish menga yangi ko'nikmalarni o'rganishga va kerakli tajribalarni orttirishga yordam bermoqda. Ayni vaqtda bakalavr bosqichini tamomlaganimdan so'ng, Oliy ta'limda faoliyatimni davom ettirishga ya'ni magistratura bosqichida ham tahsil olishga qaror qildim. O'z soham bo'yicha ya'ni rivojlanishda ma'lum nuqsonga ega bo'lgan shaxslarni jamiyatga integratsiya qilish bo'yicha dunyoda juda ko'plab yangi islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2006-yilda BMT tashkiloti tomonidan qabul qilingan va 150 dan ortiq davlatlar ratifikatsiya qilgan "Nogironlar xuquqlari to'g'risidagi konvensiya" orqali rivohlanishda nuqsoni bo'lgan shaxslarni huquqlarini, ularning barcha jabhalarda tengligini taminlab, inklyuziv jamiyatga kirishlariga yo'l ochmoqda. Yana dunyoda WeThe15 global harakati ham amlga oshirilmoqda, ushbu harakatlar nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlashga va inklyuzivlikni oshirishga harakat qilmoqda. Bu harakatlar 2021-yilda JXDX Olimpiadasi vaqtida boshlangan. Hatto, Xalqaro Paralimpik Komiteti va turli NNT tashkilotlari tomonidan ham qo'llab-quvvatlanadi. Ushbu harakatlardan maqsad ma'lum ehtiyojga ega bo'lgan shaxslarni ijtimoiy faolligini oshirish va ularni jamiyatdagi faoliyatlarini yanada ommaga ko'rsatish va ayniqsa, jamiyatdagi turli kamsitishlarni oldini olishga qaratilgan. Chet davlatlarda amalga oshirilayotgan islohotlarga ko'z tashlaydigan bo'lsak, Montenegro davlatida 2021-2026-yillarga mo'ljallangan rivojlanishda ehtiyojga ega bo'lgan shaxslarni jamiyatga qo'shish va ularga teng imkoniyatlar yaratish bo'yicha islohotlar olib borilmoqda. Ushbu islohotlarda UNICEF tashkiloti bilan ham hamkorlik qilingan. Yana Moldova davlatini ham aytishimiz mumkin, nogironlikka ega bo'lgan shaxslarga xizmat ko'rsatishni yaxshilash bo'yicha UNDP, UNICEF va OHCHR tashkilotlari yordamida mamlakatda nogironlar huquqlarini milliy siyosatga kiritish, monitoring mexanizmlarini samarali tashkil etish va kuchaytirish, xizmatlarni inklyuziv qilish bo'yicha loyihalar yo'lga qo'yilgan. Dunyo miqyosida rivojlanishda nuqsoni bo'lgan shaxslar uchun muhim islohotlar amalga oshirilmoqda, ammo shu bilan birga hali qilinadigan ishlar ham ko'p. Ma'lum ehtiyojga ega bo'lgan shaxslar uchun alohida e'tibor eng muhimi emas, muhimi ularga teng imkoniyat berish va tushunilishi eng muhimidir. Jamiyatning rivojlanish ko'rsatkishi uning eng zaif va quyi qatlamiga qanday e'tibor berganligi bilan belgilanadi. Ushbu yo'nalishda so'nggi yillarda qilinayotgan ishlarni kuzatar ekanman, bu sohada o'zimga ham aniq maqsadlar qo'yib kelmoqdaman. Jamiyatimizda har bir fuqaro teng huquqqa ega bo'lishi va o'z qadr-qimmatini anglab yeta olishi zarurdir. Shu munosabat bilan men "Inklyuziv Kelajak" nomli tashkilotni tashkil etishni rejalashtirib kelmoqdaman. Ushbu tashkilot ma'lum ehtiyojga ega bo'lgan shaxslar uchun keng qamrovli imkoniyatlar beradi. Ushbu ijtimoiy loyihadan maqsad, ehtiyojga ega bo'lgan shaxslarni qobiliyat va salohiyatini yuzaga chiqarish va inklyuziv madaniyatni mustahkamlashdir. Ushbu ijtimoiy loihada turli bo'limlar faoliyat yuritishi haqida reja qilmoqdaman. Misol uchun: Ta'lim bo'limi- Ushbu bo'limda tashkilot

25-Aprel, 2026-yil

maxsus tayyorlangan pedagoglar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yadi va bunda umumta‘lim maktablarida va maktabgacha ta‘lim muassasalarida maxsus pedagoglar inklyuziv ta‘lim metodlarini joriy etishga ko‘maklashadi, o‘qituvchilarga maxsus tayyorlov bo‘yicha trening va kurslar tashkil etiladi va eng asosiysi, chet el tajribasidan samarali foydaanish bo‘yicha o‘qituvchilar uchun yo‘riqnomalar ishlab chiqishadi. Ushbu tashkilotda Psixologik yordam bo‘limi ham o‘z faoliyatini yuritadi, rivojlanishda nuqsonga ega bo‘lgan shaxslar va ularning oilalari uchun maxsus seminar va o‘quv kurslari tashkil etadi, o‘zini anglash va ijtimoiy moslashish bo‘yicha maxsus mashg‘ulotlar yo‘lga qo‘yiladi va yana ushbu bo‘limda psixologlar bilan individual maslahat olish imkoniyatlari ham mavjud boladi. Va ushbu tashkilotda eng asosiy bo‘lim bu- Bandlikni ta‘minlash bo‘limidir. Ushbu tashkilot qoshida rivojlanishda nuqsonga ega bo‘lgan shaxslar uchun tikuvchilik sexi faoliyati yo‘lga qo‘yiladi. Ushbu bo‘lim ehtiyojga ega bo‘lgan shaxslarni professional kasb-hunarga o‘rgatishga, ularning mustaqil daromad topa olishiga va mahalliy bozorlarga sifatli va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqara olishni o‘z oldiga maqsad qiladi. Ushbu ijtimoiy loyiha bir yonalishli bo‘libgina qolmay balki, ko‘p yo‘nalishlarni ya‘ni ta‘limni, psixologiyani va eng sosiysi rivojlanishda nuqsoni bo‘lgan shaxslarni bandligini ta‘minlashga qaratilgan loyihadir. Ushbu rejalashtirgan loyihamdan asosiy maqsad, nafaqat rivojlanishda ehtiyojga ega bo‘lgan shaxslar uchun yordam berish balki, ularni ijtimoiy hayotga moslashtirish, o‘z qobiliyatlarini va salohiyatlarini ro‘yobga chiqara olishlari uchun qulay sharoit yaratishdir.

Mening orzuim- har bir inson teng huquqli ekanligini va o‘z kuchiga va qobiliyatiga tayangan holda jamiyatning bir bo‘lagi sifatida faol va foydali ro‘l o‘ynashidir.

Bu ko‘zlagan maqsadlarimga erishishim uchun albatta, kuchli salohiyatga ega va ilmli kadr bo‘lishim zarur. Ilm yo‘lida amalga oshirilayotga juda ko‘plab iskohtlar ham meni bu rejalashtirgan maqsadlarimni amalga oshirishga unadaydi. Prezidentimizning magistraturada o‘qimoqchi bo‘lgan xotin-qizlar uchun grand asosida o‘qishga qabul qilinishini bilganimdan so‘ng jamiyatimizda ayollarga bo‘lgan e‘tibor davlar siyosati darajasigacha ko‘tarilayotganini angladim. Ayollarning jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘lishlari uchun har tomonlama qo‘llab-quvvatlanishi albatta, taqsiinga sazovordir. Ushbu islohotlar doirasida qanchadan-qancha ayollarning orzulari ro‘yobga chiqayotganini tushundim.

Bugungi kunda davlatimiz va Prezidentimiz tomonidan xotin-qizlarga va yoshlarga berilayotgan imkoniyatlar beqiyosdir. Ushbu imkoniyatlardan foydalanish va porloq kelajak uchun albatta, harakat qilish zarurdir. Men tengdoshlarimga ta‘lim -kelajaklari uchun sarmoya ekanligini va kelajak ilmli yoshlarning qo‘lida ekanligini aytib o‘tishni joiz deb bildim. Albatta, harakat qilgan inson cheksiz imkoniyatlarga ega bo‘ladi. Kelajagimiz bizning bilmimiz va harakatlarimizga bog‘liqdir. Biz yoshlarda ham katta mas‘uliyat bor ya‘ni davlat bergan imkoniyatlarni oqlash. Bu mas‘uliyat bizning oldimizda turgan maqsadlarimizga erishishimizda va harakatdan to‘xtamay oldinga intilishimizga yordam beradi. Bilim olish, izlanish, biror kasb-hunarning egasi bo‘lish- nurli kelajak kalitidir. Yurtimizdagi bunday o‘zgarishlar va ta‘lim sohasidagi yuqori ko‘rsatkichlar qanchalik rivojlanishning tezligidan dalolat berib turgan bir paytda, biz ushbu imkoniyatlardan foydalana olmasak va taslim bo‘lsak kelajak bizni kutmaydi. Shuning uchun har birimiz

25-Aprel, 2026-yil

imkoniyatlar to‘g‘ri va samarali foydalanaylik va har bir qadamimiz o‘z kelajagimiz uchun poydevor bo‘lishini his etaylik!

Aziz qizlar! Siz bilim va kas-hunarizgiz orqali o‘z orzularingizni ro‘yobga chiqarishingiz mumkin, o‘zingizga ishoning, hech qachon harakatdan to‘xtamang va taslim bo‘lmang!